OILADA BOLALAR BILAN MULOQOTNI YO‘LGA QO‘YISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Xidirova Malohat Qazaqovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika” kafedrasi dotsent v.b., (PhD)
xidirovamalohat848@gmail.com,
Tolliboyeva Hilola Bahodir qizi
Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning tarbiyasida va psixologik rivojlanishida katta ahamiyatga ega.To‘g‘ri muloqot usullarini qo‘llash orqali bolalarda ishonch, hurmat va muhabbat hissini shakllantirish mumkin. Maqolada oilada bolalar bilan samarali muloqot qilishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari haqida tushunchalar berib boriladi.

Kalit so‘zlar. Muloqot, pedagogik, psixologik shart-sharoitlar, tushuncha, oila, farzand, ota-ona, psixolog, o‘qituvchi, ijtimoiy, ijtimoiylashuv ,jamiyat, muhit, tarbiya, jarayon, bosqich, tur, xususiyat, fikr, o‘quvchi, keksa avlod, yaqin insonlar, do‘stlar, guruh va jamoa.

Abstract. Establishing communication with children in the family is of great importance for their upbringing and psychological development. By applying proper communication methods, trust, respect, and love can be fostered in children. This thesis provides an understanding of the pedagogical and psychological conditions necessary for effective communication with children in the family.

Keywords. Communication, pedagogical, psychological conditions, concept, family, child, parents, psychologist, teacher, social, socialization, society, environment, education, process, stage, type, feature, opinion, student, older generation, close people , friends, group and team.

Kirish. Hozirgi kunda oilada bolalar bilan muloqot olib borish anchayin murakkablashib bormoqda. Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik shart-sharoitlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi ochiq va halol muloqot lozimdir. Bolalar bilan muloqotda ochiq va halol bo‘lish kerak. Ular bilan gaplashganda uning his tuyg‘ulariga etibor berish, muammolarini tinglash va muhokama qilish muhimdir. Bu usul bolalarda ishonch hissini oshiradi, hamda ularning kelajagi uchun ham foydalidir. Bundan tashqari ota-onalar bolalari uchun ham namunali bo‘lishi kerak. Uning xatti harakatilari,so‘zlari bolalarga ta’sir qiladi. Agar ota-onalar o‘zlari yaxshi namuna ko‘rsatsa farzand ham ularga ergashadi. Xalqimiz aytganidek, ,,Qush – uyasida ko‘rganini qiladi”. Bu maqol ham bejiz emas, bolalar eng avvalo uyida ko‘rgan narsasini takrorlaydi. Shuning uchun ham ota-onalari farzandiga namuna bo‘lishi kerak. Agarda ota-onada doimiy janjallashsa, bir-biriga nisbatan o‘zaro hurmat bo‘lmasa,farzandiga alohida vaqt ajratmasa, o‘z ayblarini o‘zi anglab yetmasa,farzand ham oila tushunchasiga ana shunday ko‘z bilan qaray boshlaydi, ya’ni mehrni ota-onasidan emas ko‘chadan mehr izlay boshlaydi.Bolaning dilida qanday vaziyat o‘tayotganini o‘zi anglay olmagan holda jamiyatdan uzila boshlaydi. Unda odamovilik, tortinchoqlik, qo‘rqoqlik hissilari ustun kela boshlaydi.Ya’ni unga hamma narsa

begonadek tuyuladi. O‘zini anglamagan holda ulg‘ayadi Shuning uchun Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqot juda muhim. Bu muloqot o‘zaro tushunish, ishonch, va yaqinlikni rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Inson boshqa mavjudodlardan o‘z ongi, muloqotga kirishishi,va aqliy fikrlay olishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham inson ongli mavjudotlar sirasiga kiradi. Oila qurish jarayonida ikki qarama- qarshi jins vakillari bir birlari bilan muloqotda bo‘ladilar, bir birlarini o‘rganib oila ostonasiga qadam qo‘yishadi. Oilaning mustahkamligini bog‘lab turuvchi rishta bu farzanddir. Ana endi ota-onaning asosiy etibori bog‘lab turuvchi rishta farzandga qaratiladi.Tarbiya berish va ota-onaning tarbiyalanish bosqichi ham ana o‘shanda yana bir sayqallanadi.Ya’ni ota-ona tarbiya berish jarayonidagi farzand bilan muloqotga kirishish jarayonidir.

Muloqot jarayoni shunday yo‘lga qo‘yilsinki, farzand hech bir kamchilik ko‘rmay ulg‘aysin. Lekin ota-onalar ko‘pincha mana shu jarayonda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Mashhur turk yozuvchisi Adem Guneshning ,,Farzand tarbiyalash siri” kitobida shunday so‘zlarni keltirib o‘tadi. ,,Farzand tarbiyalash jarayonida ota-onada ikki xil muloqot jarayoni bo‘lishi kerak. Ya’ni birinchisi ichki muloqot, ikkinchisi tashqi muloqot “. Bu so‘zlarga nazar tashlasak, ota-ona farzandi bilan muloqotga kirishish jarayonida gapiradigan gapini oldin tahlil qilib, keyin yuzaga chiqarish kerak. Ularga doimiy vaqt ajratish kerak. Muloqot jarayonida turli xil varvar va vulgarizim so‘zlardan foydalanmaslik kerak. Ota ona daraxt misoli bo‘lsa farzand unib kelayotgan niholdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari” kitobida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish, ota-onalarning bolalariga nisbatan mas’uliyatini oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini qayd etadi. Oilada ona qiz bola bilan yaqin sirdosh bo‘lsa,ota o‘g‘il bilan do‘st bo‘ladi. Bola o‘z xatti-harakatlariga javob bera olgach, shaxs deb qaraladi. Bu davrda ular muloqot jarayonining eng qiziq davri bo‘ladi. Bu davrda ota-ona farzandga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Bolada u nima, buni nima qilishda foydalanadi degan savollar bera boshlaydi, atrofdagilarga nisbatan qiziqishi ortadi, bu davr bolaning atrof bilan tanishish jarayoni sanaladi. Bolaning nutqi jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish muhimdir. Bolaning krizis davri aynan 3 yosh, o‘smirlik, o‘spirinlik va keksalik davr hisoblanadi. Bu davr haqida Ergash G‘oziyevning ,,Umumiy psixologiya” kitobida ham alohida keltirib o‘tilgan. Bolalarning muloqot jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelmasligi uchun,ota onalar farzandlari bilan doimo muloqotda bo‘lishi va farzandi qaysi bosqichni boshidan o‘tkazayotganligidan xabardor bo‘lishi kerak. Ota-onalar farzandlari bilan muloqot jarayonini yo‘lga qo‘yishda quyidagilar tafsiya etiladi:

- Ochiqlik va ishonch: Farzandlar ota-onalari bilan ochiq muloqot qilishni his qilishlari uchun, ota-onalar ishonchli va samimiy bo‘lishi lozim. Farzandlar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlarini his qilishlari muhimdir.

- Ijobiy munosabat: Ota-onalar farzandlariga ijobiy munosabatda bo‘lishlari, ularga ko‘maklashishi va rag‘batlantirishi zarur. Bu farzandlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

- Eshitish va tushunish: Ota-onalar farzandlarining fikrlarini, his-tuyg‘ularini va muammolarini diqqat bilan eshitishlari kerak. Ularning fikrlariga ahamiyat berish, ularni tushunishga harakat qilish zarur.

- O‘rnak ko‘rsatish: Ota-onalar muloqotda qanday qilib o‘zaro munosabatlarni qurishlarini ko‘rsatib berishi kerak. Bu ularning farzandlariga yaxshi namuna bo‘ladi.

Ota-ona farzandlari uchun ibrat bo‘lsa, ular ham kelajakda ota -onalariday bo‘lib ulg‘ayishadi va farzand tarbiyalash jarayonida hech qanday qiyinchiliklarga duch kelishmaydi.

Muhokama. Farzand ota-onalar uchun bamisoli farishtaga tengdirlar.Shu sababli ham ba’zi bir ota-onalar farzandlarini o‘zaro nigohi orqali anglab olaman deb o‘ylaydilar, ularni moddiy tomonlama hech kimdan kam qilmaydilar. Farzandiga vaqtlarini ajratmaydi, ularni oldiga borsa, qo‘polroq qilib aytganda “Pul bilan og‘zini yopishadi”, farzandni hech kim kam-ko‘stsiz, bizdek tarbiya qila olishmaydi deb o‘ylashadi. Farzandi bilan muloqot qilmaydi,undan o‘zini olib qochadi yoki ishlatib juda ko‘p deb bahona topishadi.Bu esa farzandga va ota-onaga minus sanaladi. Yani farzandda qay holat kechayotganini bilmaydi. Yana farzandim menga quloq solmaydi deb

nolishadi. Aslida esa eng katta xatoni o‘zlari qilishganini anglab yetishmaydi. Farzand muloqotga kirishish, ijtimoiylashuv jarayonida, do‘st orttirish jarayonida juda qiynaladi, ularda kechayotgan vaziyatni tushunmaslik salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bu vaqtda ota-ona va psixolog farzand bilan ishlashi tafsiya etiladi.

Natija. Ota onalar va bolalar o‘rtasida ishonchli muvozanatni saqlash kerak. Muloqotni rivojlantirish uchun qiziqarli faoliyatlarni birgalikda o‘tkazish (o‘yinlar, sport, sayohatlar) ham juda foydali. Ota-onalar farzandlariga emotsional intellektni rivojlantirishga yordam berishi lozim, bu esa ularni o‘z his-tuyg‘ularini yaxshiroq anglashga imkon beradi. Sabr-toqat: Har bir muloqot jarayonida sabrli bo‘lish juda muhimdir. Ba’zan bolalar his-tuyg‘ularini ifoda etishda vaqt olishi mumkin. Ota-onalar farzandlariga ishonch bildirishlari kerak. Bu farzandlarning o‘zlarini qulay his qilishlariga va mustaqil bo‘lishlariga yordam beradi. Ochiq va samimiy muloqot ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Farzandlar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari kerak. Farzandning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarida ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi zarurdir. Bu ularga kuch beradi va yangiliklarga ochiq bo‘lishlariga yordam beradi. Farzandlarining muloqotga kirishishi, ya’ni ularning boshqa odamlar bilan aloqalar o‘rnatishi va muloqot qilish qobiliyati, hayotda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ota-onalar farzandlariga muloqot qilishda yordam berishlari kerak. Ularni tinglash, fikrlarini qadrlash va suhbati davomida qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Farzandlarni muloqotga kirishishga tayyorlashda izchil yondoshuv zarur bo‘ladi: ularga tinglashni, fikr bildirishni va boshqalarga hurmat ko‘rsatishni o‘rgatish lozim. Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik va psixologik shartsharoitlari to‘g‘ri amalga oshirilsa, bolalarning rivojlanishi va tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar bolalar bilan ochiq va halol muloqot qilishlari, ularni tinglashlari, rag‘batlantirishlari va ularga ishonch bildirishlari kerak.Shundagina farzand yaxshi psixologik tarbiya topadi. O‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayev Sh. Oila va bolalar tarbiyasida muloqotning ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi nashriyoti. 2010.
2. Karimova D. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti. 2018
3. Muxammadiyev F. Oilada bolalar bilan muloqot qilishning pedagogik usullari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2017
4. Raximov K. Oila psixologiyasi Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.2011
5. Xodjayeva N. Oilada bolalar bilan muloqot qilishning psixologiyasi. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.2016